

QORAXONIYLAR DAVLATIDA SUD-HUQUQ TIZIMI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi*

1-kurs 2.24-guruh talabasi

Inoyatova Gavhar

gavhar05@gmail.com

Ilmiy raxbar S.Shukurov

Annotatsiya. Ushbu maqola O'rta Osiyo hududida o'z faoliyatini o'tagan Qoraxoniylarning shakllanish tarixi, uning boshqaruv jarayoni, davlatni boshqargan hukmdorlar haqida ma'lumotlar berib o'tadi.

Kalit so'zlar: qoraxoniylar, qarluqlar, chig'illar, Yettisuv, Sayram, Somoniylar, Hasan Bug'raxon, Nasr Eloqxon.

Abstract. This article provides information about the history of the formation of the Karakhanids, their management process, and the rulers who ruled the country.

Key words: Karakhanis, Qarluqs, Chigils, Yettisuv, Sayram, Samonis, Hasan Bugrakhan, Nasr Elaqqhan.

Абстрактный. В данной статье представлена информация об истории формирования Караханидов, процессе их управления и правителях, управлявших страной.

Ключевые слова: Караханис, Карлуки, Чигилс, Йеттисув, Сайрам, Самонис, Хасан Буграхан, Наср Элакхан.

Kirish. Mamlakatimiz davlatchiligi tarixida o'ziga xos o'ringa ega Qoraxoniylar davlati tarixshunosligi u qadar boy emas. Tarixchi olimlar qoraxoniylar davlati tarixi hali to'liq o'rganilmaganligini ta'kidlashgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Mahmud O'shiyning «Fatovoyi qozixon», Abu Said Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Ibn al-Asirning «Al- komil fit-tarix» asarlarida qoraxoniylar tarixi xususida tegishli ma'lumotlar mavjud. Mahmud Koshg'ariyning «Devon-u lug'atit turk» asari turkiy qavmlar tarixi xususida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Muhokama va natijalar. X asrning ikkinchi yarmiga kelib ichki ziddiyatlarning kuchayishi va keskinlashuvi natijasida Somoniylar davlati kuchsizlana boshlaydi. Somoniylarga tobe bo'lgan viloyatlar, ayniqsa, Xurosonda ular hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan isyonlar, toj-u taxt uchun uzluksiz olib borilgan kurashlar Somoniylar davlati inqirozini yaqinlashtirgan edi. Bunday vaziyatdan Yettisuv va Koshg'arda yashovchi turkiy qabilalar unumli foydalanishdi. Chunki, X asrning ikkinchi yarmiga

kelib bu hududlardagi turkiy qabilalar qarluqlar, chig'illar, yag'molar va boshqalar o'zlarining kuchli davlatlarini tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar.

Qoraxoniylar chig'illar yoki qarluqlar qavmiga mansubligi haqidagi nuqtayi-nazar o'rta asrlar davri tarixining ko'pchilik tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etiladi. 840-yili qarluqlar sardori isfijob hokimi Bilgakul Qodirxon o'zini xoqon deb atab, oliy hukmronlikka da'vo bilan chiqqan edi. Lekin o'sha yildayoq Somoniylar Isfijobni zabt etishdi. Turkiy qabilalar, ayniqsa 893-yili Ismoil Somoniy Tarozi egallaganidan so'ng g'arbiy Koshg'ar yerlari tomonga chekinishga majbur bo'lishgan edi. Sotuq Bug'roxon Somoniylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan holda turkiy qabilalar orasida o'z ta'sir doirasini kengaytirib bordi[1].

“Qoraxon” so'zi turlicha ma'noda talqin qilinadi. Xususan, “qora” so'zi “kuchli”, “xalq”, “xon” so'zi “hukmdor”, “rahbar” ma'nolarida kelishini ko'pchilik olimlar e'tirof etishadi. Qoraxoniylardan birinchi bo'lib islomni qabul qilgan va musulmoncha Abdulkarim degan nom olgan hukmdor Xorun Bug'raxon hisoblanadi. Ayrim yozma manbalarda u Bug'raxon at-Turkiy deb nomlanadi. Misol uchun, Ibn al-Asir o'zining “Kitob al-komil fit- tarix” asarida ma'lumot berishicha, Koshg'ar, Bolasog'udan to Chin (Xitoy) chegarasigacha bo'lgan yerlar Bug'raxon at-Turkiy hukmronligi ostida bo'lgan. Qoraxoniylar hukmronligi davri o'zaro hokimiyat uchun kurashlar doimiy asnodan bo'lib turganligi bilan izohlanadi. Mazkur kurashlar asosan Ali Arslonxon va Xorun Bug'roxon avlodlari o'rtasida bo'gan. Shu bois Alilar xonadoni va Xoruniylar xonadoni degan atama shu davrga nisbatan ishlatiladi[2]. Qoraxoniylar sulolasi o'z hukmronligi davrida o'z mulklarining sarhadlarini bir necha marta o'zgartirganlar. Misol uchun, Movarounnaxrni egallaguniga qadar ularning mulklari Tyanshan va uning atroflarini egallagan bo'lsa, XI asr boshlariga kelib esa, hokonlik chegaralari Amudaryogacha yetgan. Oradan ko'p o'tmay ular Sharkiy Turkistonda Qashg'arni va Xo'jandni qo'lga kiritdilar. Bunday holat xoqonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Har bir viloyat ma'lum siyosiy mavqega ega bo'lgan holda xondan kichikroq unvonga ega elekxonlar tomonidan boshkariladigan bo'ldi[3].

Qoraxoniylar Somoniylarga nisbatan davlat tuzilishi va boshqaruvining boshqacharoq shaklini joriy etishga harakat kildilar. Ularda hokimiyat Somoniylarda bo'lgani kabi to'g'ridan to'g'ri otadan o'g'ilga emas, balki akadan ukaga, keyin sulolaning navbatdagi avlodiga o'tgan. Ayrim olimlarning fikricha, Qoraxoniylarning butun urug'i hokimiyatning jamoaviy sohibi bo'lib, sulolaning har bir a'zosi o'zining kelib chiqishiga ko'ra, umumsulola mulkining bir qismiga da'vo qila olardi. Bu mulkning asosiy qismi sulolaning uch ulug' a'zosi ulug' xoqon, kichik xokon va elekxonga tegishli hisoblanardi. Ularning har kaday avlodiga o'z hissasi ajratib berilar edi.

Qoraxoniylar davrida oddiy xalq budun, soliq to'lovchi fuqaro raiyyat, qabila boshliklari bek, savdogarlar sart deb atalgan[4].

Somoniylar davrida juda katta kuchga ega bo'lgan dehqonlar, yirik yer egalari Qoraxoniylar davrida o'z ta'sirini asta-sekin yo'kota bordilar. Qoraxoniylar bu yirik yer egalarning mulklarini, yerlarini zo'rlik bilan tortib olib o'zlariga xizmat kiluvchi amaldorlarga, lashkarboshilariga bo'lib berdilar. Shartli ravishda foydalanishga berilgan bu yerlar tarixiy manbalarda "iqta" deb, yer egalari esa "iqtador" deb atalgan. Asta-sekin bu yerlar avloddan avlodga meros sifatida o'tadigan bo'ldi. Iqta bilan bir paytda yerga egalik qilishning boshka turlari ham mavjud edi[5].

Bu davrda Movarounnahrda dindorlarga va diniy idoralarga tegishli vakf yerlari ham ancha kengaydi, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy hayotda musulmon dindorlarining o'zni katta bo'lganligidan dalolat beradi.

Bu davrda yerga egalik qilishning xususiy shakli oz miqdorda bo'lsa-da saklanib qolindi. Bu yerda shuni unutmaslik kerak-ki, Movarounnahrda Qoraxoniylar bilan birga juda ko'p ko'chmanchi turkiy qabilalar kirib keldi. Ushbu kabilalar Qoraxoniylar hukmdorlarga ko'rsatgan xizmatlariga qarab katta-katta yerlarga, serunum yaylovlarga egalik qildilar. Ba'zi hollarda sug'oriladigan dexkonchilik yerlari ham ko'chmanchilarga yaylov tariqasida bo'lib berilgan[6].

Xulosa. Qoraxoniylar davlati davrida sud-huquq tizimi davlat boshqaruvining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, unda shariat qonunlari asosiy o'rin egallagan. Sud ishlari asosan qozilar tomonidan olib borilgan bo'lib, ular diniy huquq - islom shiati asosida hukm chiqarganlar. Shuningdek, ba'zi hollarda odat huquqi va sulton farmonlari ham sud jarayonlariga ta'sir ko'rsatgan. Mazkur tizim orqali jamiyatda adolat, ijtimoiy tartib va huquqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanoshida muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Qoraxoniylar davlati sud-huquq tizimi O'rta asrlar Markaziy Osiyo davlat boshqaruvi va huquqiy tamoyillarining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Qoraxoniylar davlati IX-XII asrlarda mavjud bo'lib, u turkiy davlat tuzilmalarining rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Ularning sud-huquq tizimi Islom huquqi (shariat), mahalliy turkiy an'analar va davlat boshqaruviga xos siyosiy tamoyillar asosida shakllangan. Sud ishlari asosan **qozilar** tomonidan olib borilgan, va shariat asosida ish yuritilgan. Shuningdek, davlatda **amaldorlar, beklar va xonlar** tomonidan qabul qilingan qarorlar ham huquqiy tizimning muhim qismi bo'lib xizmat qilgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida **vakillar va boshqaruvchilar** ma'lum hududlarga tayinlanib, ular orqali adolat ta'minlangan. Bu davrda huquqiy tizim xalq orasidagi nizolarni hal qilish, soliqlarni tartibga solish hamda jamoat tartibini saqlash vazifalarini bajargan. Islom huquqi asosida **yer mulkdorligi, meros huquqi va tijorat masalalariga oid qonunlar** ishlab chiqilgan. Umuman olganda, Qoraxoniylar davlati huquqiy tizimi an'anaviy turkiy boshqaruv uslubi va Islom huquqini uyg'unlashtirgan holda ishlagan. Bu tizim keyingi davrlardagi Markaziy Osiyo davlatlarining sud-huquq tizimiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Eshov “O’zbek davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”. Toshkent-2012.
2. A.S.Sagdullayev “O’zbekiston tarixi” I kitob. Toshkent-2021.
3. Ziyodulla Muqimov “O’zbekiston davlati va huquqi tarixi”. Toshkent-2003.
4. E.V.Rtveladze “O’zbekistonning tarixiy o’tmishi”. Toshkent-2009.
5. A.S.Sagdullayev “O’zbekiston tarixi”. Toshkent-2019.
6. Bo’riboy Ahmedov “O’zbekiston tarixi manbalari”. Toshkent-2001.
7. Sh.R.Pidayev “O’zbekistonda arxeologik tadqiqotlar”. Toshkent-2006.
8. T.Sh.Shirinov “O’zbekistonda arxeologik tashkilotlar”. Toshkent-2001

